

**O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O' RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG' LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma sifatida

UDK: -616.98.993-161.22.071

VAXOBOVA NILUFAR SHAXOBIDINOVNA

**"OIV INFECTSIYASI BO'LGAN BEMORLARDA LYAMBLIOZ
KECHISHINING KLINIK VA LABORATOR XUSUSIYATLARI".**

Magistrlik ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya

5A 510107-Yuqumli kasalliklar

Ilmiy rahbar: PhD Ergasheva M. Y.

**MINISTRY OF HIGHER AND MIDDLE SPECIAL EDUCATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**
MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
SAMARKAND STATE MEDICAL UNIVERSITY

As manuscript
UDK –616.98.993-161.22.071

VAKHOBOVA NILUFAR SHAKHOBIDINOVNA

**"CLINICAL AND LABORATORY CHARACTERISTICS OF
LYAMBLIOSIS IN PATIENTS WITH HIV INFECTION".**

Dissertation for a master's degree

5A 510107-Infectious Diseases

Scientific leader: PhD Ergasheva M. Y.

MUNDARIJA

QISQARTMALAR RO'YXATI	4 bet
KIRISH	5 bet
1-BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	11 bet
§ 1.1. OIV infektsiyasining umumiy xususiyatlari va kechishi	11 bet
§ 1.2. Zamonaviy sharoitda lyambliozining epidemiologik holati va xususiyatlari	18 bet
§ 1.3. Lyabliozining OIV bilan kasallangan bemorlarda klinik va laborator xususiyatlari	30 bet
2-BOB. TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI	36 bet
§ 2.1. Kuzatuv guruqlarining umumiy tavsifini taxlil qilish.	36 bet
§ 2.2. Tadqiqot usullari.	37 bet
§ 2.3. Materialni qayta ishlashning statistik usullari	39 bet
3-BOB. TADQIQOT NATIJALARI	40 bet
§ 3.1. Lyabliozining OIV bilan kasallangan bemorlarda klinik belgilarining tahliliy natijalari	40 bet
§ 3.2. Lyabliozining OIV bilan kasallangan bemorlarda laborator tekshiruvlar natijalari	47 bet
§3.3. OIV infektsiyasi ichak lyambliozi bilan kechgan bemorlarda tashxisot algoritmi	49 bet
XOTIMA	51 bet
XULOSALAR	54 bet
AMALIY TAVSIYALAR	55 bet
ADABIYOTLAR RO'YXATI	56 bet

QISQARTMALAR RO'YXATI

- **AIT** - alanin aminotransferaza
- **AsT** - aspartat aminotransferaza
- **ARVT** - antiretrovirus terapiyasi
- **OIV** - odam immuntanqisligi virusi
- **OIV infektsiyasi** - odam immuntanqisligi virusi keltirib chiqaradigan agent
- **GGTP** - gammaglutamiltranspeptidaza
- **IFA** - immuno-fermentlarni tahlil qilish
- **LAP** - limfoadenopatiya
- **LDG** - laktat degidrogenaza
- **LFL** - lizofosfolipidlar
- **LPX** - lizofosfatidilxolin
- **LXAT** - lesitin-xolesterin-asiltransferaza
- **UL** - umumiy lipidlar
- **UFL** - umumiy fosfolipidlar
- **PZR** - polimeraza zanjiri reaktsiyasi
- **EChT** - eritrotsitlarning cho'kish tezligi
- **OITS** - orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi

KIRISH

Tadqiqotning dolzarbligi. Dunyoda 40 yil aniqlangan OIV infeksiyasining pandemiyasi va mamlakatimizda 20 yil oldingi epidemiya hanuzgacha nafaqat yuqumli patologiyalar strukturasida balki butun tibbiyat olamida dolzARB muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. 2017-yilda O'zbekistonda taxminan 1900 kishi OIV infeksiyasi bilan vafot etgan va unga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati kattadir. [Pokrovskiy V. V. 2018; Bulankov Y. I., 2009; Lioznov D. A. va boshq., 2015; Belyakov N. A., Rassoxin V. V., 2019;].

OIV infektsiyasi zamonaviy infektologiyaning yechimini kutayotgan asosiy muammolaridan biridir. Ushbu kasallik zamonaviy davrning eng ommaviy infektsiyasi bo'lib, hamma joyda keng tarqalgan va hozirda dunyoning barcha mamlakatlarida rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tgan (Onishchenko G. G., 2006, Pokrovskiy V.V. va hammuallif. 2009, Stiven J.H. 2020, Centers for Disease Control, AQSh 2018).

JSST ma'lumotlariga ko'ra, OIV infeksiyasi pandemianing 35 yili davomida 35 milliondan ortiq odamning hayotiga zomin bo'ldi, taxminan 38 million kishi OIV infektsiyasi bilan yashamoqda va kasallanga kontingentning deyarli uchdan ikki qismi Janubiy Afrikada yashaydi. OIV bilan zararlanganlar O'zbekistonda xam mavjud. [JSST, 2019]. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, OIV bilan kasallanganlar orasida odamlarning o'rtacha 81 foizi OIV infeksiyasi bilan zararlanganligini biladi, bu ko'rsatgich yashirin tashuvchilar foizi kattaligidan dalolat beradi. Shuni ta'kidlash joizki, kasallanganlar o'rtasida OIV-testi va antiretrovirus terapiyasi bilan bemorlarni qamrab olish O'zbekistonda hozirgacha qiyinchilik tug'dirmoqda, davolanish qamrovi ekpertlarning baholashiga ko'ra 80% ni tashkil etmoqda [JSST, 2021].

Bundan tashqari, OIV infektsiyasini samarali davolaydigan antiretrovirus terapiya hali ham mavjud emas [JSST, 2020]. OIV tufayli kelib chiqqan ikkilamchi immunitet tanqisligi tufayli sil, B va C virusli gepatitlari, bir qator opportunistik infektsiyalar, ayniqsa gerpesviruslar, onkoviruslar, kandidoz, toksoplazmoz, yiringli

infeksiyaning qo'zg'atuvchilari va boshqalar kabi infektsiyalar alohida ahamiyatga ega bo'ldi. [Stepanova E. V., 2014; Pokrovskiy V. V. 2017; Rassoxin V. V. 2013, 2017; 2018; Belozerov E. S. va boshq. 2012, 2020].

Yo'l dosh kasalliklar (opportunistik infektsiyalar, onkopatologiya) va polimorbid fon (in'ektsion giyohvandlik, surunkali gepatit C, sil va boshqalar) OIV infektsiyasi bilan birga kechishi, uning deyarli barcha organlar va tizimlarning patologik jarayonga jalb qilinishini isbotlaydi [Deeks S. G. 2011; Jones M., 2011; Kovari H. va boshq., 2017].

Ma'lumki, OIV infektsiyasining og'ir kechishini va salbiy oqibatlarni kelib chiqishiga sabab bo'uvchi yuqumli va yuqumli bo'lmanan xarakterdagi yo'l dosh kasalliklar hisoblanib ular premorbid fanni og'irlashtiradi. O'RVI va grippdan keyingi pog'onada turuvchi ko'p uchraydigan kasalliklardan biri bu ichak parazitozlari xisoblanib ular o'z o'rniда OIV infektsiyasining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda ichak parazitozlari inson cassalliklarida muhim o'rinni tutadi. Respublikada har yili parazitoz bilan kasallangan 200 mingdan ortiq bemor ro'yxatga olinadi [Abdiyev T. A. va boshqalar 2019]. Shunday qilib, adabiyotlarga ko'ra, ayrim hududlarda aholining lyambliozi bilan zararlanishi: Qashqadaryo – 34,3%, Xorazm – 32,9%, Surxondaryo – 28%, Samarqand - 27,6%, Buxoro - 27%, Navoiy – 25% va Farg'ona – 20% [Abdiyev T. A. va boshqalar 2019]. Shu bilan birga, aksariyat hollarda parazitoz kasallik OIV infitsirlangan bemorlarda uchraydi va ular zaiflashgan immunitatni yanada zaiflanishiga zamin yaratadi. Klinik belgilarning o'ziga xosligini beradigan bunday kombinatsiyalar diagnostika-tahlil va terapiyani tanlash jarayonini qiyinlashtiradi.

Hozirgi vaqtida ilmiy adabiyotlarda nafaqat Samarqand viloyati bo'yicha balki dunyo bo'yicha ichak parazitozining, xususan lyambliozining OIV infektsiyasi kechishining xususiyatlari, ushbu kasalliklarning epidemik yuqumli jarayonlarining xossalari, bemorlarni davolash taktikasi, ushbu patologiyaning prognozi to'grisida yetarlicha ma'lumot yo'qligi aniqlandi. Ushbu masalalar bo'yicha mavjud adabiy manbalar OIV infektsiyasini aniq tekshirish vaoldini olish chora tadbirlari to'liq

bo'limgan davrga tegishli. Samarqand viloyatidagi bemorlarda OIV infektsiyasining lyamblioz bilan birgalikda kechganda, unung epidemiologiyasi, klinik kechishi va laborator xususiyatlari yetarlicha o'rganilmagan. Viruslar va parazitlarning bir-biriga o'zaro ta'siri va ta'sir darajasi xususiyatlari yetarlicha aniqlanmagan: lyambliozning OIV infektsiyasiga nisbatan tasir xususiyatlari va viruslarning ichak lyambliozi hayotiy shakliga ta'siri atroficha asoslanmagan.

Shunday qilib, OIV infektsiyasining diagnostikasida erishilgan yutuqlarning ahamiyatiga qaramay, hozirgi vaqtida OIV infeksiyasi dunyo bo'yicha dolzarb bo`lib, kasallikning oqibatida mikst infektsiyalar sonining ortishi tufayli ushbu masalalarni keng o'rganish masalasi ortib bormoqda, bu esa yangi kasallikkarni aniqlashning maqsadga muvofiqligini taqozo etadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'lijni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiysi to'g'risidagi Farmonida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga 1-ilova) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.12.2018 yildagi PF-5590-son), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.05.2019 yildagi "Tibbiyat va farmatsevtika ta'limi va fan tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4310-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.05.2021 yildagi "Sog'lijni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5124-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.05.2021 yildagi PF-6221-son Farmoni. Sog'lijni saqlash tizimida islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyat xodimlari salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.02.2021 yildagi "Sog'lijni saqlash tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5000-son qarori sog'lijni saqlash sohasida raqamlashtirish" to'g'risidagi qaror va farmonlarda ko'rsatilgan vazifalar ijrosini ta'minlanishi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning respublika fan va texnikasi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi fan va

texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarining VI. "Tibbiyot va farmakologiya" qismiga muvofiq amalga oshirildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy o‘quv yurti yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat tibbiyot universitetining 012000243-sonli “Yuqumli kasalliklar profilaktikasi, diagnostikasi va davolashning zamonaviy texnologiyalarini yaratish va joriy etish” (2019–2023) ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqot maqsadi: Samarqand viloyati OIV infektsiyasi va lyamblioza birgalikda kechishida klinik-laborator xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari:

1. Samarqand viloyati bo‘yicha OIV infektsiyasi lyamblioza bilan birgalikda kechishida va OIV infektsiyasi kechishida lyamblioza kasalligi aniqlanilmagan holatlarda bemorlarning umumiyligi tavsifini taxlil qilish.
2. OIV infektsiyasi lyamblioza bilan birgalikda kechishida va OIV infektsiyasi kechishida lyamblioza kasalligi aniqlanilmagan holatlarda bemorlarning klinik belgilarini taqqoslash.
3. Samarqand viloyati bo‘yicha OIV infektsiyasi ichak lyambliozi bilan kechgan bemorlarda tashxisot algoritmini tuzish.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi:

Bugungi kunga qadar Samarqandda viloyati hududida OIV infektsiyasi lyamblioza fonida o‘rganilmagan, ushbu masalaga bag’ishlangan chet davlatlarda olib borilgan tadqiqoqlar natijalariga ko‘ra uning dolzarbligini asoslangan. Shu sababli dissertatsiya ishida OIV infektsiyasining lyamblioza fonida epidemiologic xususiyatlari, klinik belgilari va laborator tashxislash masalalari yoritilgan.

Tadqiqot materiallari va usullari:

Tadqiqot 2020 va 2021 yillar davomida Samarqand viloyati yuqumli kasalliklar klinik shifoxonasiga yotqizilgan OIV infektsiyasi tasdiqlangan 81 nafar bemorni o‘z ichiga oladi. SHulardan;

1. OIV infitsirlangan bemorlar -39 kishi.
2. OIV infeksiyasi lyambliozi bilan kechgan bemorlar - 42 kishi.

Barcha bemorlarda klinik (shikoyati, anamnez, ob'ektiv tekshiruv), laborator (umumiylig qon, siydik, najas tahlili, parazitologik tekshiruv, qonning bikimyoviy tahlili, immunoblot, CD4 -limfotsitlarning mutlaq sonini aniqlash, PZR) va instrumental (UTT) tekshiruvlar o'tkazilgan. O'tkazilgan tekshiruv natijalari Microsoft Office Excel 2016® dasturida statistik analiz qilingan va standartlar bo'yicha ko'rsatgichlar hisoblangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

OIV infektsiyasining lyambliozi bilan kechgan bemorlarda o'ziga xos klinik belgilari aniqlandi. Xulosalar klinik, laborator, instrumental, immunologik tekshiruvlar asosida qo'yildi. Infektion jarayon mikst holatida kechganda immunologik siljishlar o'rGANildi.

Tadqiqotning amaliy natijasi:

Samarqand viloyatida ilk marotaba OIV infektsiyasining lyambliozi bilan kechganda klinik-laborator o'ziga xos xususiyatlari o'rGANilishiga asoslanib, asosiy tashxisot usullari batafsil yoritildi va OIV infeksiyasi nazoratini takomillashtirish yo'llari yuzasidan infektionist shifokorlar va epidemiologlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi:

Dissertatsiya materiallari SamDTU yuqumli kasalliklar, epidemiologiya va dermatovenerologi kafedralarining kafedralalararo yig'ilishida e'lon qilindi va muhokama qilindi. SamDTU o'tkazilgan har yilgi 76-xalqaro «Fundamental, amaliy tibbiyot va farmatsiya yutuqlari» ilmiy-amaliy talabalar konferensiyasida (Samarqand 2022) xamda 76-xalqaro «Fundamental, amaliy tibbiyot va farmatsiya yutuqlari» ilmiy-amaliy talabalar konferentsiyasida (Samarqand 2023) ma'ruza III darajali diplomlar bilan taqdirlandi. Ish SamDTU yuqumli kasalliklar kafedrasi ilmiy seminarida sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining nashr etilganligi: Dissertatsiya materiallari va natijalari asosida bosma va elektron ilmiy jurnallarda, konferensiya to'plamlarida 9 ta ilmiy ish chop etildi, ulardan 4 ta ilmiy maqola, 5 ta tezis.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:

Dissertatsiya kompyuter matni, 3 ta jadvallar va 4 ta rasmlardan tashkil topgan bosma sahifalardan tashkil topgan bo'lib, kirish, adabiyotlar sharhi, tadqiqot materiallari va usullarini tavsiflovchi bob, tadqiqotlari natijalarini o'z ichiga olgan bob, xotima, xulosalar va amaliy tavsiyalardan iborat. Bibliografik ro'yxat o'z ichiga 159 ta ilmiy manbalarni olgan, shu jumladan 66 tasi mahalliy va rus tilida ,93 tasi chet el adabiyoti.

1-BOB. OIV INFEKTSIYASI LYAMBLIOZ BILAN KECHISHINING KLINIK-LABORATOR ASPECTLARI (ADABIYOTLAR SHARHI)

§ 1.1. OIV infektsiyasining umumiyl xususiyatlari va kechishi

Odam immunitet tanqisligi virusi (OIV) 1900-yillarda kashf etilganligiga qaramasdan faqatgina 1980-yillarda besoqolboz erkaklar orasida noma'lum immunitet tanqisligi belgilari bilan kechaotgan kasallik sifatida o'ziga dunyo olimlarini e'tiborini tortdi [62, 65]. Oradan 2 yil o'tib olimlar orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS) va uning qo'zg'atuvchi – OIV virusini aniqladilar. Dunyo bo'ylab 37 million odam OIV virusi bilan yashamoqda. OIV infektsiyasida har xil opportunist va onkolog kasalliklar rivojlanishi mumkin va ular o'limning asosiy sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi [17, 36, 44]. OIV infektsiyasining klinik va laborator hususiyatlari juda yaxshi o'rganilgan lekin uni davolash choralari hanuzgacha qidirilmoqda [37, 120]. Ammo, OIV virusi bilan zararlanish xavfini pasaytirish va nazorat qilish yo'llari topilgan. OIV birinchi navbatda CD₄ deb nomlanuvchi T-hujayralarini nishonga oladi. OIV virusi organizmning shilliq qavat to'qimalariga kiradi va bir necha kun ichida limfold organlarga tarqaladi. Taxminan 10-kunda virus qonda aniqlanadi va keyingi bir necha hafta davomida tarqalishda davom etadi. Bir necha yil o'tgach, immunitet tanqisligi paydo bo'ladi va odamlarda xarakterli yuqumli yoki onkologik asoratlar paydo bo'ladi. Bu asoratlar mavjudligi OITSni belgilaydi [32]. Antiretrovirus terapiya (ARVT) qariyb yigirma yil davomida OIV infektsiyasini davolash uchun qo'llanilib kelinmoqda. Ko'pgina holatlarda ARVT juda samarali - OIV replikatsiyasini qisman yoki to'liq to'xtatib OITSni rivojlanish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Biroq, ARVT to'xtatilgan taqdirda, virus 13 hafta ichida qayta faollashadi [84].

OIVning ikkita asosiy shtammi yoki turi mavjud: OIV-1 va OIV-2. Dunyoning deyarli barcha mintaqalarida xavf omillariga ega bo'lgan ayrim guruhlarda OIV tarqalishi eng yuqori. Ushbu guruhlar orasida erkaklar bilan jinsiy aloqada bo'lgan erkaklar, tomir ichiga giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilar, qamoqxonalardagi odamlar, foxishalar va transgender odamlar kiradi. Ushbu

guruhlarning har birida OIV infektsiyasining profilaktika va davolash xizmatlaridan foydalanishga to'sqinlik qiluvchi xatti-harakatlari bilan bog'liq, murakkab huquqiy va ijtimoiy muammolar mavjud [45]. OIV bilan kasallangan onalarning chaqaloqlari infektsiyani yuqtirish xavfi yuqori bo'lgan yana bir guruhdir, ammo quyida tavsiflanganidek, ARVT qo'llanilganda, OIV infektsiyasining katta muvaffaqiyatlaridan biri onadan bolaga yuqishning deyarli yo'q qilinishi bo'lishi ta'kidlanadi. Global miqyosda erkaklar bilan jinsiy aloqada bo'lgan erkaklar orasida OIV infektsiyasi bilan kasallanish so'nggi 10 yil ichida yuqori darajada saqlanib qoldi [10].

OIV-1 infektsiyasining o'ziga xos belgilaridan biri bu o'zgaruvchanlikning yuqori darjasini bo'lib, har bir replikatsiyaga bitta mutatsiya to'g'ri keladi [82]. CD4 retseptorlar bilan bog'langan oqsillarni kodlaydigan gen keng miqyosli mutatsiyalarga dosh bera oladi. OIV-1 ning turli subtiplari bilan kasallangan turli shaxslarning gen ketma-ketligi o'rtacha 25% va 35% ga farq qilishi olimlar tomonidan tasdiqlangan. Bu xilma-xillik vaksinani ishlab chiqishda katta qiyinchiliklar tug'diradi [36].

OIV-1 infektsiyasining dastlabki belgilarini odamlarda o'rganish qiyin bo'lganligi sababli, ushbu muhim davr haqidagi ko'p ma'lumotlar makakalarda o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarga ko'ra T limfotsitlarining CD4 xujayralarikasallikning dastlabki 2 kunida aniqlanishi mumkin . Virus infektsiya o'chog'ida mahalliy infektsiya o'choqlarini hosil qiladi, keyin limfa tugunlariga va oxir-oqibat periferik limfa tugunlariga va boshqa to'qimalarga tarqaladi.

Qonda virusni aniqlanishi bosqichi klinik jihatdan isitma, umumiy limfadenopatiya, o'ziga xos bo'limgan toshma, bezovtalik bilan ifodalanadi [11, 12]. Ba'zi bemorlarda og'ir asoratlar, shu jumladan meningit, paydo bo'lishi mumkin, lekin aksariyat odamlarda asimptomatik kechadi. Birlamchi yoki o'tkir infektsiyaning ushbu davrida plazmadagi OIVning RNK darjasini odatda eng yuqori darajaga etadi. Simptomlarning namoyon bo'lishi infektsiyaning ushbu bosqichida virus yukining eng yuqori darjasini bilan kuchli bog'liqdir. Immunitet

reaktsiyasi paydo bo'lgandan so'ng, virus darajasi taxminan 100 barobarga kamayadi , bu barqaror holat kam vaqt davom etadi [28, 145].

Hali yaxshi tushunilmagan mexanizmlar orqali OIV CD4 T xotira hujayralarida yashirin infektsiyani o'rnatadi. OIV CD4 T hujayralari, monotsit va makrofaglar avlodi hujayralari va boshqa uzoq umr ko'radigan hujayralar infektsiyasini o'rnatishi mumkin . OIV DNKsiga integratsiyalashgandan so'ng, replikatsiya davrlarini qayta boshlash imkoniyatiga ega bo'ladi. ARVT yangi hujayralarni shikastlanishini oldini oladi, ammo virus DNKsi hujayraga muvaffaqiyatli integratsiyalashganidan keyin bu dorilar infektsiyani bartaraf eta olmaydi. Virusni o'z ichiga olgan limfa tugunlari virus uchun rezervuar bo'lishi mumkin va bu ARVTni to'xtatib qo'yadigan yoki samarali davolangan shaxslar orasida virusni qayta tiklash manbai hisoblanadi [137].

OIV infektsiyasi organizmning suyuqliklarini shilliq qavat, qon yoki jarohatlangan teri bilan aloqa qilish orqali yuqadi. OIV infektsiyasini yuqtirishda sunnat terisining roli xaqida bir nechta ilmiy izlanishlar o'tkazilgan, jumladan sunnat qilinmagan erkaklarda jinsiy faoliyat natijasida sekin davolanadigan mikro jarohatlar mavjudligi va jinsiy olatni mikrobiotasida himoya factorlari o'rganilgan [67]. Bir qator tadqiqotlarda uzoq muddatli in'ektsion gormonal kontratseptsiyani qo'llash, vaginal epiteliyning yupqalashishi, faollashgan CD₄ + T hujayralari sonining ko'payishi, prezervativdan foydalanishning kamayishi OIVni yuqtirish havfini oshishiga olib kelishi tasdiqlangan. Tomir ichiga yuboriladigan giyohvand moddalarni iste'mol qilish ham OIVni yuqtirish xavfini oshiradi [35, 149, 150].

Ijtimoiy omillar ham OIVga moyillikni keltirib chiqaradi va turli toifadagi odamlar orasida OIVni tarqalishi va kasallanish darajasida kuzatilgan ayrim nomutanosibliklarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, jinsiy sheriklarning ko'pligi OIVning tezroq tarqalishini ta'minlashi e'tirof etilgan. Bundan tashqari, OIV infektsiyasi aniqlanmagan va/yoki davolanmagan OIV-musbat shaxs bir nechta jinsiy sheriklar bilan jinsiy aloqa orqali tarqalish ehtimoli ko'proq [9].

OIVni tashxislash algoritmlari oxirgi yillarda o'zgartirilib kelmoqda chunki test aniqligi yil sari ortib bormoqda. Joriy AQSh Kasalliklarni nazorat qilish va

oldini olish markazlari va OIV bo'yicha Yevropa ko'rsatmalariga binoan OIVni aniqlash testini antigen-antitana tahlili yordamida o'tkazishni tavsiya qiladi (bu tahlillar to'rtinchi avlod testlar hisoblanadi [90, 91].

OIVning keyingi tarqalishini oldini olish uchun o'tkir infektsiyani o'z vaqtida aniqlash katta ahamiyatga egadir. O'tkir OIV infektsiyasi yangi infektsiyalarga nomutanosib ravishda hissa qo'shadi. Buning sabablari orasida o'tkir davrdagi viruslarning yuqori miqdori, virusning yuqori yuqumliligi va OIV infektsiyasidan bexabar shaxslarning jinsy hayotidagi sheriklar soni katta ahamiyatga ega. ARTni zudlik bilan boshlash o'tkir OIV infektsiyasining alomatlarini kamaytiradi, virusli ko'payishini kamaytiradi va yangi zararlangan odamning sog'lig'ini saqlab qoladi, shu bilan birga inficirlanlanmagan sheriklarga yuqish xavfini pasaytiradi.

Tezkor OIV testi barmoqdan olingan qon yoki og'iz bo'shligidagi so'lakdan 30 daqiqa ichida OIV-1 infektsiyasini aniqlab berishga qodir va bu test jamoatchilik to'plangan joylarda tezkor diagnostic usul sifatida ishlatalishi olimlar tomonidan tavsiya etiladi [2]. Shunga qaramasdan, hozirda litsenziyaga ega bo'lgan tezkor testlarning aksariyati o'tkir OIV infektsiyasini aniqlashda cheklangan sezgirlikka ega. Bugungi kunda aksariyat tadqiqotchilar yuqori xavf omillari mavjud bo'lgan shaxslar orasida OIVning o'tkir davrini ko'rsatadigan, to'rtinchi avlod antigen-antitana testlari va/yoki nuklein kislotasi testlari qo'llashni afzalliklarini bir qator ilmiy maqolalarida ta'kidlab o'tadilar [15, 129]. Og'iz bo'shlig'i suyuqligiidagi testning sezgirligini darajasi qon namunalari bilan o'tkazilgan testniga nisbatan 6 barobar past. OIV bilan kasallangan ba'zi odamlarda uzoq muddatli immunosupressiv terapiyadan so'ng areaktiv shaklda qaytishi mumkinligi tasdiqlangan [8]. Xulosa qilib aytganda, OIV binan zararlanganligi tasdiqlangan uzoq vaqt davomida kasallangan, hamda davolangan odamlar uchun OIV testini qo'llash maqsadga muvofiq emas.

AQSh profilaktika xizmatlari bo'yicha ishchi guruhi 15-65 yoshdagi barcha odamlar uchun kamida bir marta OIV testini o'tkazishni tavsiya qiladi, yuqori xavf ostida bo'lgan shaxslar uchun bu tesntni har yili o'tkazilshi lozim deb topilgan. Yuqori xavf guruhiga erkaklar bilan jihsiy aloqada bo'lgan jihsiy faol erkaklar

(OIV-manfiy sheri^gi bilan o'zaro monogam munosabatlarda bo'lganlar bundan mustasno), faol in'ektsion giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilar va jinsiy yo'l bilan yuqadigan infektsiyalar uchun testdan o'tmagan shaxslar kiradi. Boshqa xavf omillariga prezervativsiz anal yoki vaginal jinsiy aloqa, ayniqsa sheriklari OIV infektsiyasini yuqtirish xavfi bo'lgan shaxslar va jinsiy aloqani giyohvand moddalar yoki pulga almashtirish bilan shug'ullanadiganlar kiradi [3, 14]. Yuqori xavf ostida bo'lgan odamlar uchun OIV testi chastotasi bo'yicha tavsiyalar odatda har 3-6 oyda bir marta o'tkazishni taklif qilingan [6, 7]. JSST ko'rsatmalariga binoan, umumi OIV epidemiyasiga qarshi kurashish tibbiy muassasalariga kelgan barcha bolalar va kattalar OIV testini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar olishlari va testdan o'tishlari kerak. Bunday sa'y-harakatlarni jamoatchilik va uy sharoitida o'tkazilishi tavsiya etiladi, bu esa tibbiy yordamga muhtoj bo'limganlarni qamrab olishga katta xissa qo'shishi ko'plab ilmiy maqolalarda ta'kidlanadi [4, 43].

OIV infectsiyasi haqida bir qator uslubiy va amaliy ko'rsatmalar mavjudligiga qaramasdan, 2010 yilda AQShda OIV testini o'tkazish darajasini oshirish strategiyasi shakillantirildi. Unga ko'ra, shaxslar OIV testini o'tkazish haqida yozma ravishda xabardor qilinishi va roziligi, profilaktika bo'yicha maslahat olishi majburligi ta'kidlab o'tilgan [111]. Hozirgi kunda ko'plab tibbiy muassasalarda OIV testini o'tkazilish tavsiya etiladi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, butun jaxonda bu kabi chora-tadbirlar kasalxonalarda, tez yordam bo'lmlarida va boshqa jamoat joylarda yoshlar orasida OIV testini o'tkazish chastotasini oshishiga olib keldi [109, 151].

Kombinatsiyalangan ARVTning rivojlanishi zamonaviy tibbiyotning eng katta yutuqlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Immunitet darajasi baland shaxslarga mombinatsiyalangan ARVT rejimlari ko'llanilsa, bir necha hafta ichida viremiya darajasini bir necha barobarga kamayishi olimlar tadqiqotlari yordamida tasdiqlandi [33, 122]. Zamonaviy ARVT virusning qondagi miqdorini shunchalik pasaytiradiki, bu rejimlar virus evolyutsiyasi va dori-darmonlarga chidamli mutatsiyalar paydo bo'lishining oldini oladi. Aslida, bu rejimlar uzluksiz ishlashi

kerak. Virusli replikatsiya bo'lmasa, immunitet tizimi yo'qolgan funktsiyalarining ko'p qismini tiklaydi va OITSning oldini oladi [19, 89, 115].

Lekin ARVT har doim ham yuqori samarador emasligi ilmiy tadqiqotlarda aniqlandi. Bugungi kunda giyohvand moddalarga chidamlilikning rivojlanishi va tarqalishi tibbiyotning asosiy muammolaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Barqaror gipoviremiyaga erishilgan taqdirda ham, ko'p odamlar, hatto bir necha yillik ARVTdan keyin ham optimal immunitet funktsiyasini tiklay olmaydilar. Va nihoyat, barcha dorilar qisqa muddatlari va uzoq muddatli toksik ta'sirga ega. Hatto engil zaharlanishlar ham katta kumulativ ta'sirga ega bo'lishi mumkin, chunki bu dorilar umr bo'yli qo'llanilishi maqsadga muvofiq [88, 110].

Salomatlik bilan bog'liq hayot sifati ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u jismoniy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy faoliyat kabi omillarni o'z ichiga oladi. Hayot sifatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan OIV infektsiyasi bilan kasallanganlar orasida keng tarqalgan ko'plab omillar quyidagilardan iborat: polifarmatsiya, davolanishning toksikligi, umr bo'yli surunkali holatning yuki bilan bog'liq ruhiy salomatlik, giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish, ijtimoiy izolyatsiya va stigma. Darhaqiqat, aholining umumiyligi soniga qaraganda, OIV infektsiyasi tashxisi qo'yilgan odamlarning hayot sifati salomatlik bilan bog'liq. Muhimi, hayot sifatining pasayishi boshqa xavf omillariga, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy holat va tibbiy xizmatdan foydalanishga bog'liq emasligi aniqlandi. Uzoq vaqt davomida tashxis qo'yilgan odamlarda OIV infektsiyasini hayot sifatiga ta'siri eng katta ekanligi hammaga ma'ludir [157].

OIV infektsiyasi bilan yashovchi odamlarda hayot sifatining pasayishi antiretrovirus dorilarning salbiy ta'siri bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini tushunishga yordam beradigan juda kam ma'lumotlar mavjud. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, nukleozidlarning ba'zi analoglari, tanadagi yog' miqdorini buzuvchi va qaytarib bo'lmaydigan yo'qotishga olib kelishi mumkin (lipoatrofiya) [127]. Barcha antiretrovirus dorilar engil salbiy ta'sirga olib kelishi mumkin. Ushbu dorilarni har kuni inson hayoti davomida qabul qilish kerakligi sababli, hatto engil salbiy ta'sirlar ham hayot sifatining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Umumiy ta'sirlar orasida engil tushkunlik va g'ayritabiyy tushlar, oshqozon-ichak traktini zararlanish simptomlari va toshmalarni ko'rsatib o'tish mumkin [128].

OITS bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy asoratlarning aksariyati xozirgi kunda ARVT bilan osonlikcha oldini olish mumkin bo'lsa-da, yurak-qon tomir kasalliklari, osteopeniya va osteoporoz, ba'zi saratonlar, jigar disfunktsiyasi, buyrak disfunktsiyasi va neyrokognitiv kasalliklarni o'z ichiga olgan ba'zi qoldiq o'zgarishlar xavfi saqlanib qolmoqda [31, 38, 124]. Ko'pgina tadqiqotlarda, OIV infektsiyasi bilan kasallanganlar va OIV infektsiyasi bo'lмаган shaxslar o'zaro solishtirilgan. Natijalarga ko'ra ikkala guruxda qo'shimcha infektsiyani yuqtirish havfi an'anaviy xavf omillari (gipertenziya, dislipidemiya) mavjudligiga bogliq [158]. OIV-musbat odamlarda ushbu an'anaviy xavf omillari orasida tamakini iste'mol qilish va semirish bilan bog'liq. Shu bilan birga, OIV infektsiyasi tufayli ko'plab havf omillar mavjud, doimiy immunitet tanqisligi hamda yallig'lanishga qarshi va antiretrovirus dorilarning toksikligi shular jumlasidandir [121, 136].

Ommaviy va ilmiy matbuotda OIV infektsiyasi va/yoki uni davolashning inson qarishiga ta'sir qilishi haqidagi bir qator maqolalar mavjud [49, 50, 51]. OIV infektsiyasining qarish biologiyasiga ta'sir qiladigan omillar keng tarqalgan (mitoxondriyal toksiklik, metabolik anormallik, telomerlarning qisqarishi, yallig'lanish va boshqalar). Sog'lom qarishga salbiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'lgan ko'plab klinik omillar (masalan, ko'p kasalliklar, polifarmatsiya, qashshoqlik, giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish va ijtimoiy izolyatsiya) OIV infektsiyasi bilan kasallanganlarda ham keng tarqalgan [39, 52, 53]. Ba'zi keng tarqalgan geriatrik sindromlar, shu jumladan zaiflik, OIV kasalligiga chalinganlarda OIV-manfiy shaxslarga qaraganda tez-tez uchraydi; bu hodisa hayotning oltinchi va ettinchi o'n yilligida bo'lgan odamlar orasida ko'proq tarqalganligi ta'kidlanadi.

JSST ekspertlarining xulosalariga binoan OIVning oldini olish va davolash sohasidagi yutuqlar OIV va OITSning global miqyosdagi ta'sirini keskin kamaytirdi [40, 116, 154]. Bu yutuqlar 1990-yillarda Afrikada bo'ylab o'rtacha

umr ko'rishning qisqarish tendentsiyasini o'zgartirdi. 2000 va 2012 yillar oralig'ida Afrikada umr ko'rish davomiyligi umumiy 8% ga oshgan [5, 126].

So'nggi o'ttiz yil davomida odam immunotanqislik virusini o'rganishdan olingan ma'lumotlar profilaktik vaktsinani va OIVga qarshi davo chora-tadbirlarini ishlab chiqishga katta ahamiyatni kasb etadi.

§ 1.2. Zamonaviy sharoitda lyambliozining epidemiologik holati va xususiyatlari

Ichak lyambliozi asosan ingichka ichakning shikastlanishi, ovqat hazm qilish tizimi faoliyatining buzilishi va yashirin parazitizm yoki manifest turlar shaklida yuzaga keladigan protozoal infektsiyadir [13, 26].

Kasallik qo'zg'atuvchisi protozoa *Lamblia intestinalis* hisoblanadi. Ushbu hujayra ichi paraziti 2 ta shakli - vegetativ va kista shakli ma'lumdir. Ichak lyamblioziarning vegetativ shakllari (trofazoitlar) o'n ikki barmoqli ichakda va ingichka ichakning yuqori qismida parazitlik qilishi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan [26, 106]. Lyamblialar hayotini qo'llab-quvvatlash uchun ichak membranani hazm qilish mahsulotlarini ishlatadilar. Odamlarda ichak lyambliozining maksimal soni ingichka ichakning yuqorgi 2,5 m qismida uchrashi ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan. Bu erda ovqat hazm qilish intensivligi eng yuqori bo'lib, eng ko'p uglevodlar, oqsillar, yog'lar, vitaminlar, mineral tuzlar va mikroelementlar so'rildi [79, 155]. Lambliyaning vegetativ shakllarini ko'payishi uzunasiga ikki bo'linish orqali sodir bo'ladi. Ichak lyambliozi ingichka ichakning yuqori qismlaridan boshlanadi, lyamblialarning soni ichak bo'y lab ko'payib, distal bo'limda maksimal raqamga etadi [69].

Ichak lyambliozi odamlar va sute Mizuvchilarning paraziti bo'lib, hamma joyda mavjud. Ichak lyambliozi genetik jihatdan geterogendir. 8 ta asosiy genetik guruh mavjud bo'lib, ulardan 2 tasi (A va B) odamlar va hayvonlarda, qolgan 6 tasi (C-H) esa xayvonlarga xos bo'lib, odamlarga yuqmaydi. Odamlarda A genotipi 5% holatlarda, B genotipi 14% holatlarda uchrashi ilmiy izlanishlar orqali tasdiqlangan. A genotipi 4 ta kichik tipga ega (A-1 - A-1U). A-1 kichik turi odamlar va hayvonlarda, A-11 kichik turi - faqat odamlarda, A-111 va A-1U -

faqat hayvonlarda uchrashi ta'kidlanadi [123]. B gentipi odamlar va hayvonlarda keng tarqalgan [70]. Ushbu ma'lumotlar ichak lyamblioizni zoonoz infektsiekanligidan dalolat beradi. Ichak lyambliyalarining turli xil izolatlari DNK, izofermentlar va sirt antigenlarining tarkibi bilan farqlanadi, bu ularning virulentlikdagi farqlarini vadorilarga sezgirligini belgilashi bir qator ilmiy izlanishlarda ko'rsatilgan [125, 139].

Ichak lyambliozi - keng tarqalgan infektsiya. JSST ma'lumotlariga ko'ra, ichak lyambliozi kattalarning 10%da va bolalarning 20%da uchraydi. Tropik mintaqa mamlakatlarida ichak lyamblioizning tarqalishi 0,4-70% ni tashkil qiladi. Rossiyada lyambliozning haqiqiy tarqalishi noma'lum, chunki ko'plab protozoal infektsiyalar, shu jumladan ichak lyambliozi ham, 1991 yilgacha kodlanishi kerak bo'lgan nozologik shakllar ro'yxatiga kiritilmagan. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1991 yildan beri lyamblioz bilan kasallanish ikki baravar ko'paygan. Rossiyada lyambliozning eng yuqori ko'rsatgichlari bolalar orasida kuzatiladi. Mamlakatning turli hududlarida o'tkazilgan tadqiqtolarga ko'ra, lyamblioz bilan kasallangan bolalarning soni yiliga taxminan 5 millionni tashkil etadi, ulardan 200 mingtasi diareya sindromli klinik ko'rinishga ega. Ichak lyambliozining eng yuqori kasallanish ko'rsatgichlari 1,5 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan yosh guruhida qayd etiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchi bolalar orasida "uy" bolalariga qaraganda lyambliozni uchrash chastotasi 1,5-2 baravar yuqori. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchi bolalar orasida lyamblioz bilan kasallanganlar soni 20-75% ni tashkil qilishi tasdiqlangan [24]. Oilaviy lyamblioz o'choqlar ham shakllanishi mumkinligi rossiyalik mualliflar tomonidan e'tirof etilgan.

Ilmiy maqolalarda lyambliozda infektsiya manbai sifatida inson, itlar, mushuklar va qunduzlardan bo'lishi mumkinligi haqida dalillar mavjud, garchi ba'zi tadqiqtolar epidemiologik va statistik jihatdan tan olinmagan bo'lsalar ham [156]. Lyamblioz infektsiyasini odamlarga yuqtirishda itlarning roli katta. Echki, qo'y va qoramollardan odamga infektsiyani yuqtirish ehtimoli olimlar tomonidan ko'rilib chiqilmoqda.

Ichak lyambliozi bilan kasallanish infektsiya kistalarini fekal-oral yo'li orqali amalga oshiriladi [71]. Tashqi mihitda qo'zg'atuvchining tarqalishi suv, kontakt-maishiy, oziq-ovqat yo'llari bilan amalga oshiriladi. Gomoseksuallar orasida ichak lyambliozi va amyobiaz jinsiy yo'l bilan yuqishi ma'lum. Infektsiyani asosiy yuqish omili suv ekanligi bir nechi yil avval tasdiqlangan. Ichak lyambliozi kistalari suvda 4-20°C haroratda 3 oygacha saqlanib qolishi va "suv" o'choqlari mavjudligi ommaga ma'lum. Tropik va subtropik mamlakatlarga sayohat qilgan sayyohlarda diareya sindromining keng tarqalgan sababi ichak lyambliozi. Ichak lyambliozi kistalari suvni zararsizlantirish uchun ishlatiladigan xlorga chidamli. Shuning uchun lyambliyalari suvni zararsizlantirish usullarining samaradorligini tekshirish uchun ishlatiladigan sinov organizmlar ro'yxatiga kiritilgan [81].

Ichak lyambliozi kistalari uzoq vaqt davomida atrof-muhit ob'ektlarida (20 kungacha) va sut mahsulotlarida (ikki oydan ortiq) omon qoladi. Ichak lyambliozi fekal-oral yo'li bilan tarqalgan epidemiyalariga doir ma'lumotlar juda ko'p. Lyambliyalar yuqishining kontakt-maishiy yo'li kamroq ahamiyatga ega va ko'proq bolalar muassasalarida keng tarqalgan bo'lib, bu erdag'i xodimlar ishtirokida omalga oshishi tasdiqlangan. Bolalar va xodimlarning qo'llari, shuningdek, uy-ro'zg'or buyumlari, o'yinchoqlar va hojatxonalar infektsiyani qyuqtirish omillari sifatida muhim rol o'ynaydi [48].

Kistalar infektsiyalangan odamning najasi bilan tashqi muhitga chiqariladi. Odamlarda kistalarning ajralib chiqish davri infektsiyadan o'rtacha 9-12 kun o'tgach boshlanadi, 1 dan 17 kungacha bo'lgan oraliqda to'lqinsimon paydo bo'ladi va ko'p oylar davom etishi mumkin [134].

Ichak lyambliozi bilan og'rigan bemor diareya susaygan davrda infektsiya manbai sifatida eng xavfli hisoblanadi, chunki bu davrda kistalarning maksimal soni chiqariladi - 1 g najas tarkibida taxminan 1,8 million dona lyamblia topilishi aytib o'tilgan.

Lyamblioza sezuvchanlik ayniqsa bolalarda yuqori. Bolalar patologik agent bilan tez-tez aloqa qilishi va bolalarda zarur sanitariya ko'nikmalari yo'qligi

sababli sodir bo' ladi. Undan tashqari yosh bolaning ovqat hazm qilish fiziologiyasi (parietal ovqat hazm qilishning yuqori intensivligi) lambliya parazitizmining muhim sharti sifatida tan olingan. Kattalarda hamda enterit kasalligi bilan og'rigan bolalarda ingichka ichakning funktsiyasini buzilishlari sababli ichak lyambliozi ancha kam uchraydi. Oshqozon pilorik qismining shilliq qavatida og'ir atrofik o'zgarishlar bo'lgan odamlarda ichak lyambliozi kamroq kuzatiladi [23]. Oshqozon shirasining kislotaliligining pasayishi ichak lyambliozi rivojlanishi uchun qulay omili sifatida ko'plab adabiyotlarda yoritilgan. Atrofik gastrit bilan og'rigan odamlarda va oshqozon rezektsiyasi bo'lgan odamlarda ham lyambliozi holatlari kamdan kam kuzatiladi. "Kampilobakter pilory" infektsiyasi uchun H₂ retseptorlari antagonistlari bilan davolangan bemorlarda lyamblialar bilan zararlanish havfi yuqori. Uglevodlarga boy oziq-ovqat lambliyalar sonini ko'paytirishga yordam beradi. Past konsentratsiyada safro ichak lyambliasi tez rivojlanishini va ko'payishini ta'minlaydi, yuqori konsentratsiyalarda esa ichak lyambliasi uchun zararli ta'sir ko'rsatadi [93].

Lamblianing odam organizmga ta'siri xilma-xildir. Ichaklarning shilliq qavatning 1 sm² ga 1 milliongacha mikroorganizm joylashishi mumkinligi olimlar tomonidan o'rganilgan. Qo'zg'atuvchining uzoq muddatli odam organizmida parazitligi tufayli yallig'lanish reaktsiyasi rivojlanadi, va shilliq qavat atrofiyasiga, kriptlarning kengayishiga va chuqurlashishiga, limfoid to'qimalarning giperplaziyasiga olib keladi. Og'ir surunkali ichak lyamblioziда morfologik o'zgarishlar va klinik ko'rinishlar enterit va enterokolit kasalligi bilan juda o'xshashdir.

Ba'zi mualliflar ichak lyambliasini ingichka ichak devorida topganliklariga qaramasdan, ichak lyambliozi to'qima parazitlari emaslig ko'plab ilmiy izlanishlarda ta'kidlanadi. Lyamblioza jigar, oshqozon osti bezi, oshqozon va boshqalar organlardagi o'zgarishlar yanada murakkab genezaga ega.

Ingichka ichakning shilliq qavatining massiv zararlanishi tufayli ozuqa moddalarining, ayniqsa yog'lar va yog'da eriydigan vitaminlar, D-ksiloza va siyanokobalaminning so'rilihini buzilishiga olib keladi. Uglevodlarning

gidrolizlanishida muhim rol o'ynaydigan fermentlarning (invertaza, laktaza va boshqalar) faolligi buziladi, bu fermentatsiya jarayonlarining kuchayishiga, aerob ichak mikroflorasi sonining ko'payishiga olib keladi, natijada ovqat hazm qilish tizimining biotsenozi buziladi.

Ichak lyambliozi odam organizmida o'ziga xos tizimli va mahalliy gumoral va hujayrali immunitet reaksiyasini keltirib chiqaradi. Ichak lyambliozi infektsiyasiga qarshi organism gumoral immun javobni o'ziga xos antitanalar – A, M va G immunoglobulinlarini ishlab chiqarishi bilan namoyon bo'ladi va bu immunologik testlar bilan tasdiqlanadi [54].

Ichak lyamblioizda hujayra immunitetining buzilishining xususiyatlari in vitro va in vivo o'rganilgan. Bu ingichka ichakdag'i interepitelial limfotsitlar sonining ko'payishi va IgA/IgM normal nisbatining inversiyasi bilan namoyon bo'ladi [72]. Eksperimental va klinik tadqiqotlar интерлейкин IL5 va IL6 va интерферон IF γ ning lyamblioza immun javobini shakllantirishdagi rolini ko'rsatdi va infektsiyaga moyillikni aniqladi [29].

Turli xil immunitet buzilishlari (birlamchi yoki orttirilgan immunitet tanqisligi), shuningdek, genetik anomaliyalari bo'lgan odamlarda lyamblioz infektsiyasi uzoq vaqt davom etishi, hamda klinik ko'rinishining o'zgarishlari bir qator tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topgan. Ichak lyamblioizning surunkali kechishi IgA immunitet tanqisligi bo'lgan bemorda aniq buzilish bilan namoyon bo'lishi aniqlangan. Ichak shilliq qavatini faol ravishda kolonizatsiya qilish orqali, lyamblioz odamning IgA ni prodktsiyasini to'xtatib IgA proteazlarini ishlab chiqarishga qodir, bu infektsiyaning surunkali turlarini shakllanishiga yordam beradi [135].

Ichak lyambliozi infektsiyasiga moyillik kasallik qo'zg'atuvchisining turi, ichak shilliq qavati tarkibida mavjud azot oksidi, mikroblarga qarshi peptidlar, laktoferrin miqdori va faolligi kabi himoya mexanizmlari bilan belgilanadi [64].

Ichak lyambliozisisning klinik ko'rinishlari diapazoni keng: asemptomatik tashishdan ovqat hazm qilish tizimidagi ning turli darajadagi buzilishlarigacha. Ko'pgina hollarda infektsiya asimptomatik yoki subklinik kechadi. Klinik

manifest holatlar juda kam uchraydi. Lambliozining asimptomatik shakllari barcha infektsiyalanganlarning 25-28%da, subklinik kechishi – 49%da va manifest shakllari - barcha infektsiyalanganlarning 13-43%da kuzatiladi. Lambliozining manifest shakllarining paydo bo'lishiga turli xil tug'ma va orttirilgan immunitet tanqisligi, beriberi kasalligi, ovqat hazm qilish organlarining funksional etishmovchiligi, antibiotiklardan noratsional foydalanish katta hissa qo'shamdi [63].

Asimptomatik lyambliozi odatda ahlat yoki o'n ikki barmoqli ichak suyuqligi tarkibini tekshirishda tasodifan aniqlanadi. Shu bilan birga, uzoq muddatli asimptomatik lyambliozi qon eozinofiliyasi, uglevodlar so'rilihini buzilishi bilan namoyon bo'lishi mumkin [73].

